



PROBLEMS AND SOLUTIONS OF RESTORATION OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS INCLUDED IN THE UNESCO WORLD HERITAGE LIST

Aisha Shamsiddinovna Rakhmonova

*department head
Cultural heritage
Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Restoration of cultural heritage objects, UNESCO world heritage, preservation of authenticity, restoration of architectural monuments, conservation, historical value, legal aspects of restoration, modern technologies in restoration, modernization of cultural heritage objects, community participation, international organizations and cultural heritage.

Received: 02.10.24

Accepted: 04.10.24

Published: 06.10.24

Abstract: The article is devoted to the review of current problems and solutions related to the restoration of cultural heritage objects under the protection of UNESCO. The article shows the main obstacles faced during the restoration work, including legal restrictions, the need to preserve the original and historical value, the need to preserve the cultural heritage and the need to modernize the objects for their functional use. The article also analyzes modern approaches and solutions used in world practice to ensure successful repair of such structures. Special attention is paid to the integration of modern technologies, mutual cooperation between state authorities and the international organization UNESCO, and the participation of the local community in the restoration process.

YUNESKO UMUMJAHON MEROSI RO'YXATIGA KIRITILGAN MADANIY MEROS OBYEKTLARINI TA'MIRLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Oysha Shamsiddinovna Raxmonova

*bo'lim boshlig'i
Madaniy meros
O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Madaniy meros obyektlarini ta'mirlash, YUNESKOning jahon merosi, haqiqiylikni saqlash, arxitektura yodgorliklarini restavratsiya qilish, konservatsiya qilish, tarixiy qiymat, ta'mirlashning huquqiy jihatlarini, qayta

Annotatsiya: Maqola YUNESKO himoyasi ostidagi madaniy meros obyektlarini ta'mirlash bilan bog'liq dolzarb muammolar va yechimlarni ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Maqolada restavratsiya ishlari davomida duch keladigan asosiy to'siqlar, jumladan, huquqiy

tiklashda zamonaviy texnologiyalar, madaniy meros obyektlarini modernizatsiya qilish, jamiyat ishtiroki, xalqaro tashkilotlar va madaniy meros.

cheklovlar, asl nusxa va tarixiy qadriyatni saqlash zarurati, madaniy merosni saqlash va ulardan funktsional foydalanish uchun obyektlarni modernizatsiya qilish zarurati o'rtasidagi ziddiyat ko'rsatilgan. Shuningdek, maqolada bunday inshootlarni muvaffaqiyatli ta'mirlashni ta'minlash bo'yicha jahon amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar va yechimlar tahlil qilingan. Zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi, davlat organlari va YUNESKO xalqaro tashkilotining o'zaro hamkorligi, restavratsiya jarayonida mahalliy hamjamiyatning ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ РЕСТАВРАЦИИ ОБЪЕКТОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ, ВКЛЮЧЕННЫХ В СПИСОК ВСЕМИРНОГО НАСЛЕДИЯ ЮНЕСКО

Айша Шамсиддиновна Рахмонова

начальник отдела

Культурное наследие

Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Реставрация объектов культурного наследия, всемирное наследие ЮНЕСКО, сохранение аутентичности, восстановление памятников архитектуры, консервация, историческая ценность, правовые аспекты реставрации, современные технологии в реставрации, модернизация объектов культурного наследия, участие общественности, международные организации и культурное наследие.

Аннотация: Статья посвящена рассмотрению актуальных проблем и вызовов, связанных с реновацией объектов культурного наследия, находящихся под охраной ЮНЕСКО. В работе выделяются основные препятствия, возникающие при проведении восстановительных работ, включая правовые ограничения, необходимость сохранения аутентичности и исторической ценности, а также противоречия между сохранением культурного наследия и необходимостью модернизации объектов для их функционального использования. В статье также анализируются современные подходы и решения, применяемые в мировой практике для обеспечения успешной реновации таких объектов. Особое внимание уделяется интеграции современных технологий, взаимодействию между государственными органами и международными организациями, а также участию местного сообщества в процессе реставрации.

KIRISH

“Biz yaratish uchun endi yo‘q qilishning hojati qolmagan, kelajak uchun eng jasoratli rejalar o‘tmish merosiga hurmatni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan, zamonaviy inson bilan muloqotni osonlashtiradigan vositalar mavjud bo‘lgan davrda yashayapmiz. ajdodlarining buyuk ishlari”.

(YUNESKOning Xalqaro yodgorliklarni muhofaza qilish munosabati bilan 1964 yildagi murojaatidan)

YUNESKO Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan madaniy meros obyektlari butun dunyo bo‘ylab insoniyat madaniyati va tarixining eng muhim yodgorliklaridir. Shu bilan birga insoniyat tarixi va madaniyati uchun katta ahamiyatga ega.

Shu nuqtai-nazardan ajdodlarimiz moddiy-madaniy san‘atini o‘rganish muqaddas qadamjolarini asrab-avaylash, ularni muhofaza qilish, obod qilish, noyob yodgorliklarni ta‘mirlash masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biridir. Ana shu maqsad yo‘lida, 1993-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi 120 dan ortiq davlatni birlashtirgan Jahon turistik tashkiloti (WTO- World Tourism Organization) ga a‘zo bo‘ldi.

1994-yil BMT va YUNESKO ko‘magida Jahon turizm tashkilotining Ipak yo‘li, deb nomlangan xalqaro seminar o‘tkazildi. Mustaqillik yillarida, muqaddas qadamjolarida yotgan avliyo va allomalarning faoliyatiga bag‘ishlab, YUNESKO rahbarligida xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan sanalar tashkil etilishi bilan bir qatorda, ilmiy-tadqiqotlar olib borish asosiy vazifa sifatida belgilandi.

ASOSIY QISM

O‘zbekiston Respublikasi YUNESKO tashkilotining teng huquqli a‘zosi sifatida Xivadagi Ichanqal’a qo‘riqxonasida (1990) hamda Buxoroning tarixiy markazida (1993) joylashgan yodgorliklar, Shahrisabz shahridagi Temur va Temuriylar davri me‘moriy yodgorliklari (2001) va Samarqand shahri markazidagi tarixiy yodgorliklar (2002) Xalqaro Jahon Madaniy Merosi Qo‘mitasiga 13 ta mashhur yodgorliklar sifatida ro‘yxatga olindi.

Prezidentimizning 2018-yil 19-dekabrda “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori bu borada yangi bosqichni boshlab berdi. Qarorning 10-bandiga asosan YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga ko‘ra kiritilgan respublikadagi hududlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar hisoblanishi belgilandi. Ularda rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari Madaniy meros agentligi hamda YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan majburiy tartibda kelishilgan holda amalga oshirishiga oid tartib

oʻrnatildi. Shuningdek, “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonunida VI bobi alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarga oid qator normalar belgilangan. YUNESKOning Umumjahon merosi roʻyxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga koʻra kiritilgan respublikadagi hududlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar sifatida belgilab qoʻyilishi ushbu hududlarning huquqiy maqomiga aniqlik kiritildi va ularni muhofaza qilishning qonuniy asoslari yaratildi. Rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan kelishib olish yoʻlga qoʻyildi.

Prezidentimizning 2018-yil 19-dekabrda “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” qarori bu borada yangi bosqichni boshlab berdi. Qarorning 10-bandiga asosan YUNESKOning Umumjahon merosi roʻyxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga koʻra kiritilgan respublikadagi hududlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar hisoblanishi belgilandi. Ularda rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari Madaniy meros departamenti hamda YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan majburiy tartibda kelishilgan holda amalga oshirishiga oid tartib oʻrnatildi. Shuningdek, “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonunida VI bobi alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarga oid qator normalar belgilangan. YUNESKOning Umumjahon merosi roʻyxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga koʻra kiritilgan respublikadagi hududlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar sifatida belgilab qoʻyilishi ushbu hududlarning huquqiy maqomiga aniqlik kiritildi va ularni muhofaza qilishning qonuniy asoslari yaratildi. Rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan kelishib olish yoʻlga qoʻyildi. Masalan, 2020-yilda YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan kelishib olish uchun 11 ta loyiha Umumjahon merosi markaziga yuborilgan. 2020-yil sentyabr oyida Buxoro tarixiy markazida rejalashtirilgan obyektning loyihasi yuzasidan Umumjahon merosi markazining ijobiy xulosasi olindi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-martdagi “Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi huzuridagi Madaniy meros departamenti faoliyatini tashkil etish hamda moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 265-sonli Qarorining 33-bandida “YUNESKOning Umumjahon merosi roʻyxatiga kiritilgan hududlarning shaharsozlik normalari va qoidalari talablari maxsus vakolatli organ bilan kelishishi belgilab qoʻyildi. Shu jihatdan, “Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi madaniy meros departamenti faoliyatini tashkil etish hamda moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qaror qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martda “Moddiy-madaniy meros obyektlari va YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 119-sonli Qarori qabul qilingan. Ushbu qaror bo‘yicha barcha moddiy va arxeologiya merosi yodgorliklari operativ boshqaruvi bilan Madaniyat boshqarmasiga va Muzey qo‘riqxonasiga topshirilgan.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida katta turistik salohiyatga ega. O‘zbekiston sayyohlik ko‘lami va tarixiy joylar ko‘pligi bo‘yicha dunyodagi yetakchi o‘nta mamlakat qatorida turadi.

2023 yil 1 iyunda Ma‘muriy islohatlar doirasida madaniy meros sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘grisida Ozbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-177–son qarori bilan Madaniy meros sohasidagi islohatlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha “Yo‘l haritasi” ishlab chiqildi.

Madaniy meros obyektlarni saqlash va ta‘mirlash masalasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, jahon hamjamiyati oldida turgan muhim muammolardan biridir. Ularni saqlash va restavratsiya qilishdan ko‘zlangan maqsad, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan madaniy meros yodgorliklarini kelgusi avlodlarga xam yetkazishdir. Zamonaviy shaharlarning asosiy muammolaridan biri undagi qadimiy-tarixiy inshootlar va yangi binolarning kompozitsion nomutanosibligidir.

Ushbu maqolada madaniy meros obyektlarini ta‘mirlash jarayonidagi asosiy muammolari, dolzarbligi va uning ahamiyati tahlil qilinadi, ularning yechimlari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, YUNESKO Xalqaro Umumjahon Merosi Milliy Komissiyasi tomonidan O‘zbekistonda restavratsiya va konservatsiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so‘z yuritiladi.

YUNESKO Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan madaniy meros obyektlarini ta‘mirlash ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, moliyaviy, texnik va ijtimoiy muammolarni yechishni talab etadi.

Madaniy meros obyektlarini o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad, ushbu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqotlar olib borish, bugungi kunda zamonaviy integratsiya jarayonlari – turizm rivojini jadallashtirishda har bir shaxs o‘rnini ta‘minlash demkdir.

Demak, madaniy meros obyektlari turizm rivojlanishiga katta hissa qo‘shar ekan, respublikamizning turli madaniy qatlamlari va ularda qad ko‘tarib turgan tarixiy yodgorliklarimiz sayyohlar uchun qiziqarli joylar bo‘lib, ular mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltirishini alohida ta‘kidlash lozim. Madaniy meros va turizmni rivojlantirishning mahalliy hamjamiyatlar uchun ahamiyatlisi shundaki, madaniy meros obyektlari mahalliy hamjamiyatlarning identitet manbasi hisoblanadi. Ular mahalliy aholining o‘z tarixiga va madaniyatiga hurmatini oshiradi, o‘zligini anglashga yordam beradi.

Soha doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarining dolzarbligi, uning tarixiy va madaniy ahamiyati, turizm va iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari, ilmiy va ta'limiy ahamiyati bilan belgilanadi. Madaniy meros obyektlari milliy va xalqaro miqyosda tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, madaniy qatlamlarda vujudga kelgan yodgorliklar o'zida insoniyat tarixi, san'ati va madaniyatini aks ettiradi. Ana shunday badiiy tarixiy qimmatga ega bo'lgan me'morchiilk durdonalarida asrashga doir olib borilayotgan sayi-harakatlar, tadqiqot ishlari avlodlar o'rtasida madaniy merosni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniy meros yodgorliklarini asrab avaylashda ekologik barqarorlik alohida ahamiyatli bo'lib, ko'pgina madaniy meros obyektlari tabiiy resurslardan barqaror foydalanish tamoyillariga asoslangan. Demak, tarixiy yodgorliklarni restavratsiya va konservatsiya qilish orqali ekologik muvozanatni xam saqlash mumkin.

Shu o'rinda madaniy meros obidalarini ta'mirlashda zamonaviy tahdidlar, texnologik taraqqiyot restavratsiyaning oldida turgan dolzarb masalalar ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Jumladan, zamonaviy tahdidlar iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar, urush va mojarolar, shuningdek, inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan zararlarni o'z ichiga oladi.

O'z zamonasidan bizgacha yetib kelgan har qanday madaniy meros obyektlari albatta zamonaviy tahdidlarga duch kelmaslikning iloji yo'q. Ushbu tahdidlarga qarshi kurashish va obyektlarni saqlash uchun restavratsiya ishlarini olib borish muhimdir.

Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar restavratsiya ishlarini samarali va sifatli bajarish imkonini beradi. Ilg'or texnologiyalar yordamida obyektlarning asl holatini tiklash va saqlash mumkin.

Restavratsiya-bu yodgorlikning o'ziga xos bo'lgan uslubiga nisbatan aslligini saqlanib qolishi kerak bo'lgan operatsiya. Uning maqsadi qadimiy manbalar va asl hujjatlarda ilmiy asoslangan yodgorlikning estetik va tarixiy-badiiy qiymatini saqlash va shu bilan birga o'rganilgan tadqiqot ishlarini amalga oshirishdir. Mazkur ish jarayoni yemirilgan, vayrona holatiga kelgan obyektlarni qayta ta'mirlash bilan boshlanib, taklif qilingan rekonstruksiya darajasida tugaydi: estetik yoki texnik sabablarga ko'ra zarur deb hisoblangan har qanday qo'shimcha ish arxitektura tarkibiga kiradi va bosqichma-bosqich o'tib kelayotgan barcha davrlarda amalga oshirilayotgan ishlar o'z izlarini qoldiradi. Restavratsiya - har doim yodgorlikni eng avvalo arxeologik va tarixiy tadqiq qilishdan boshlab, har doim insoniyat bilan hamrohlikda yashashda davom etuvchi ish jarayonidir.

YUNESKO hamkorlik va qo'llab-quvvatlash xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy va texnik yordam madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish jarayonini osonlashtiradi. Bundan tashqari xalqaro hamkorlik orqali tajriba almashish mumkin. Buning uchun davlatimiz tomonidan madaniy merosni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha kun kundan

yuzaga kelayotgan o'zgarishlar shart-sharoitlariga qarab yangi siyosat ishlab chiqishlari va qonunlar qabul qilishnishi lozim bo'ladi. Bu esa restavratsiya ishlarini yanada samarali natijalarga olib chiqishida yordam beradi.

Bugungi kunda soha rivoji uchun amalga oshirilayotgan ishlar qatorida bir qancha muammolarning kelib chiqishi va ularning yechimlari borasida xam to'xtalib o'tish joiz. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi: Madaniy meros obyektlarini ta'mirlash ko'p mablag' talab qiladi. Ko'p hollarda davlat byudjeti yoki xayriya mablag'lari yetarli bo'lmaydi. Mutaxassislarning yetishmasligi: Maxsus ta'lim va tajribaga ega restavratorlar yetishmasligi ko'p obyektlarni sifatli ta'mirlash imkoniyatini cheklaydi. Materiallar va texnologiyalarning muvofiqligi: Ta'mirlash jarayonida zamonaviy materiallar va texnologiyalar qo'llanilishi, tarixiy obyektlarning asl holatini saqlashga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mahalliy hamjamiyatlar bilan aloqalarning yetishmasligi: Mahalliy aholi va jamoatchilikning ta'mirlash jarayonida ishtirok etishi ta'mirlash ishlarining muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi. Aks holda, mahalliy hamjamiyatlar e'tiborsiz qolishi mumkin. Iqlim va ekologik ta'sirlar: Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar madaniy meros obyektlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ularni ta'mirlashni murakkablashtiradi.

Shu o'rinda madaniy meros yodgorliklarini asrab avaylash va turizmni rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan chara-tadbirlar doirasida ularga moliyaviy yordam va grantlar ajratish, ilmiy-tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalarni ilgari surish, mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ekologik havfsizlik va barqarorlikni ta'minlash kabi bir qator omillarni muammolarning yechimi sifatida o'rganish va tadbiriq etish maqsadga muvofiqdir.

YUNESKO Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan madaniy meros obyektlarini ta'mirlash-tiklash jarayonlarida xalqaro tashkilotlar va davlatlar tomonidan taqdim etilgan moliyaviy yordam va grantlar madaniy meros obyektlarini ta'mirlashda katta yordam beradi. Buning uchun madaniy merosni ta'mirlash bo'yicha maxsus ta'lim dasturlari va treninglar tashkil etish, malakali mutaxassislar tayyorlash zarur.

YUNESKO Umumjahon madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish dolzarbligi shundaki, ushbu obyektlarni saqlash va tiklash orqali biz insoniyat tarixini, madaniyatini va merosini kelgusi avlodlarga yetkazishimiz mumkin. Restavratsiya jarayonidagi zamonaviy ilmiy yondashuvlar, ilg'or texnologiyalar hamda xalqaro hamkorlik obyektlarning asl holatini saqlashga yordam beradi va bu maqsadlarga erishishda muhim rol o'ynaydi. Restavratsiya muammolarining echimi sifatida ekologik havfsizlik va barqarorlik prinsiplari asosida ish yuritish, iqlim o'zgarishiga moslashish choralarini ko'rish, mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, mahalliy aholi va jamoatchilikni ta'mirlash jarayoniga jalb etish, ularning fikrlarini ham

inobatga olish zarur. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan muammolar va ularning yechimlari madaniy merosni saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘ngi yillarda O‘zbekiston hududidagi noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, tarixiy shaharlarning bosh loyihasi va menejment rejasini YUNESKO xalqaro standartlari hamda talablariga muvofiq ishlab chiqishda mazkur tuzilmaning xalqaro ekspertlari ham keng jalb etilmoqda. YUNESKO bilan yaqin hamkorlikda moddiy va nomoddiy meros obyektlarini asrashga doir turli xalqaro anjumanlar tashkil qilinmoqda. Mazkur tadbirlar madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish yo‘lidagi dolzarb muammolarni ko‘rib chiqish, xalqaro tajribani o‘rganish, tarixiy-madaniy meros saqlanishini ta‘minlashga doir milliy tizimni takomillashtirish, bu yo‘nalishdagi davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash imkonini bermoqda.

Restavratsiya muammolarining echimi sifatida ekologik havfsizlik va barqarorlik prinsiplari asosida ish yuritish, iqlim o‘zgarishiga moslashish choralarini ko‘rish, mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mahalliy aholi va jamoatchilikni ta‘mirlash jarayoniga jalb etish, ularning fikrlarini ham inobatga olish zarur. Xar bir obyektning ta‘mirlashtirish, konservatsiya qilish sifati va samaradorligini oshirish uchun izlanishlar asosidagi manbaalarga tayanib salohiyatli darajada tadqiqot ishlarini olib borish, va shu asosda tayyorlangan YUNESKO xalqaro standartlari hamda talablariga muvofiq ishlab chiqilgan loyiha xujjatlariga olingan milliy komissiyaning xulosasiga binoan restavratsiya ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan muammolar va ularning yechimlari madaniy merosni saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

An’anaviy usullar yetarli bo‘lmaganda, yodgorlikni mustahkamlashga barcha zamonaviy konservatsiya va qurilish usullarining qo‘llash hamda ularning samaradorligini oshirishda kafolatlangan va ilmiy ma’lumotlar bilan tasdiqlangan tajriba orqali erishish mumkin.

Yodgorlikni asrab avaylash, saqlash uchun barcha davrlarning haqiqiy hissasi hurmat qilinishi kerak, restavratsiya paytida erishiladigan maqsad emas; Binoda bir nechta qo‘shilgan shartlar mavjud bo‘lsa, asosiy shartni olib tashlash faqat istisno holatlarda va olib tashlangan elementlar alohida qiziqish uyg‘otmasa, topilgan kompozitsiya yuqori tarixiy, arxeologik yoki estetik ahamiyatga ega bo‘lsa va uning saqlanib qolishi sharti bilan oqlanadi. yetarli deb hisoblanadi. Ko‘rib chiqilayotgan elementlarning qiymatini baholash va ularni chiqarib tashlash to‘g‘risidagi qaror faqat loyiha muallifiga bog‘liq bo‘lishi mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Almanax. Arxitektura Uzbekistana. Tashkent, izd-vo literaturi i iskusstva imeni Gafura Gulyama - 1985.
2. O‘zbekiston zamonaviy shaharsozligida me‘moriy ansambl va komplekslar.- Samarqand: Zarafshon, 2014.
3. Salimov O. Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashda tadqiqot asoslari. - Toshkent,.2013.
4. O‘zbekistonning moddiy-madaniy merosi obyektlarining Yunesko Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilish tarixi. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF BIRUNI ISSN (E) 2181-2993 Vol. 2, Issue 1. Feb. (2023)
5. Ruziyeva D.I. Ways of development and promoting of cultural tourism in Uzbekistan // Economics and management: theory and practice: Collection of scientific articles. Vol. 2 - Verlag SWG imex GmbH, Nürnberg, Deutschland, 2014.